



UDK: 94(575.13)"1920/1924":631.11

Najmiddin QODIROV,

Tarix fanlari nomzodi, dotsent, kafedra mudiri, Xalqaro Nordik universiteti

E-mail: n.qodirov@nordicuniversity.org, <https://ORCID.org/0000-0002-5190-6852>

KUIT professori, t.f.d A.Zamonov taqrizi asosida

IJTIMOY-IQTISODIY INSTITUT SIFATIDA MAHALLANING YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI ISHTIROKI

Аннотация

Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida mahallaning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'zmi va ishtiroki tahlil qilinadi. Mahalla institutining mustaqillik yillaridan buyon yoshlar bilan olib borgan tarbiyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy faoliyati tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida o'rganilib, so'nggi yillardagi islohotlar natijasida uning yoshlarni jamoat hayotiga jalb etish hamda ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantirishdagi salohiyati izchil oshib borgani asoslanadi. Shu jarayonda mahalla yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik va faol fuqarolik pozitsiyasini, yosh avlod kamolotining muhim fazilatlarini tabiiy ravishda shakllantirishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar ijtimoiy faolligi, mahalla, ijtimoiy-iqtisodiy institut, fuqarolik jamiyati, jamoat hayotiga jalb etish, tarbiya, yoshlar kamoloti, ijtimoiy mas'uliyat, milliy qadriyatlar.

УЧАСТИЕ МАХАЛЛИ КАК СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье анализируются роль и участие махалли как социально-экономического института в повышении социальной активности молодежи. На основе историко-сравнительного подхода исследуется воспитательная, социально-экономическая и просветительская деятельность института махалли в работе с молодежью в годы независимости. Обосновывается, что в результате реформ последних лет последовательно возрастает потенциал махалли в привлечении молодежи к общественной жизни и стимулировании ее социальной активности. Показано, что в данном процессе махалля выступает важным социальным механизмом формирования у молодежи социальной ответственности, коллективизма, активной гражданской позиции и других качеств, необходимых для всестороннего развития молодого поколения.

Ключевые слова: социальная активность молодежи, махалля, социально-экономический институт, гражданское общество, вовлечение в общественную жизнь, воспитание, развитие молодежи, социальная ответственность, национальные ценности.

THE ROLE OF THE MAHALLA AS A SOCIO-ECONOMIC INSTITUTION IN ENHANCING YOUTH SOCIAL ACTIVITY

Annotation

The article analyses the role and participation of the mahalla, as a socio-economic institution, in increasing the social activity of young people. Using a historical-comparative approach, it examines the educational, socio-economic and enlightenment activities of the mahalla institution carried out with young people since the years of independence, and substantiates that recent reforms have steadily strengthened its potential to engage youth in public life and stimulate their social activity. It is shown that in this process the mahalla also naturally fosters among young people social responsibility, a sense of community and an active civic stance as essential qualities of the rising generation.

Keywords: social activity of youth, mahalla, socio-economic institution, civil society, engagement in public life, upbringing, youth development, social responsibility, national values.

Kirish. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy institutlar, xususan, mahalla instituti muhim o'rin tutadi. Mahalla fuqaro va shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi o'ziga xos ijtimoiy tarbiya va nazorat mexanizmlarini shakllantirgan barqaror ijtimoiy institut sifatida [12], qadimdan mavjud bo'lib, bugungi kunda mazmunan yangilangan holda fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini sifatida faoliyat yuritmoqda [22]. Ayni shu institut yosh avlodning jamoat hayotiga daxldorligini ta'minlovchi, uning ijtimoiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy makondir.

Mustaqil taraqqiyot yillaridagi ijtimoiy amaliyot mahalla tizimi yoshlarning aqliy, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan sog'lom voyaga yetishida bevosita ishtirok etuvchi tarbiyaviy makon bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu institut orqali yoshlarni

jamoat hayotiga jalb etish, ularda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatlari kengayib bordi [19.18]. Ayni shu tarbiyaviy makon yoshlarda jamoaviylik, ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolik tuyg'usini tabiiy ravishda shakllantiruvchi o'choqlardan biri sanaladi.

Demokratik islohotlar jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot va ma'naviy sohalarini liberallashtirishga yo'naltirilgani sharoitida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga" o'tish tamoyilini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirildi [9]. Mahallalar demokratik taraqqiyot islohotlarini quyi darajada amalga oshirishda muhim bo'g'in bo'ldi. O'zida ko'plab funksional vazifalarni birlashtirgan ushbu institut o'z faoliyati

davomida dunyo hamjamiyati tomonidan bir necha bor e'tirof etilgan va amaliyotda ijobiy natijalarini namoyon etgan tajriba sifatida ham gavdalandi [15. 13].

Mazkur maqolaning maqsadi – ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida mahallaning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'zni va ishtirokni tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilish hamda uning ushbu boradagi salohiyati o'zgarish dinamikasini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod yetakchi yondashuv sifatida qo'llanildi. Mahalla institutining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi ishtiroki mustaqillikning dastlabki yillaridan to so'nggi ishtiroklar davrigacha bo'lgan tarixiy rivojlanish mantig'ida bosqichma-bosqich o'rganildi. Manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, qonunlar hamda hukumat qarorlari kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davriy matbuot materiallari ("Mahalla" gazetasi), rasmiy va xalqaro statistik ma'lumotlar (Jahon banki ko'rsatkichlari), shuningdek mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Turli davrlarga oid amaliy tajriba va statistik ko'rsatkichlarni qiyoslash orqali institutning yoshlar bilan ishlash salohiyati va uning samaradorligi o'zgarish dinamikasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Mustaqil O'zbekistonda mahalla tizimining rasmiy faoliyati 1992-1993 yillarda boshlandi. 1992 yilda Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining tashkil etilishi va 1993 yil 2 sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi dastlabki huquqiy asos bo'ldi [7]. Mahallalar madaniy-ma'rifiy ishlarni jonlantirish, yoshlar ongida milliy istiqloq mafkurasiga asoslangan tushunchalarni shakllantirish, aholi salomatligi va ekologik muhitni yaxshilash maqsadida "Oila – maktab – mahalla" dasturini amaliyotga joriy etish orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish ishlarining faol ishtirokchisiga aylandi.

Bu institutning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'zni davlat siyosatining ilk bosqichlardan o'tirof etilgan: respublikaning birinchi rahbari yoshlar tarbiyasi bilan keng shug'ullanish hamda mahallalarda kichik ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirish ishlarida mahallalar ishtiroki muhimligini alohida ta'kidlagan edi [9]. 1998 yildagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmon esa yoshlar tarbiyasi yo'nalishida keng jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishning keyingi huquqiy asosini yaratdi [1].

Mahalla institutining muhtojlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati yoshlarda muruvvat, hamdardlik va o'zaro yordam kabi ijtimoiy qadriyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Jumladan, 2000 yil yanvarida o'tkazilgan "Muruvvat o'n kunligi"da davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorlikda kam ta'minlangan oilalarga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatdi. Xususan, Ellikqal'a tumanida 26 mingga yaqin bolaga sovg'a-salomlar ulashildi [10]. Bunday xayriy tashabbuslar mahalla amaliyotida muntazam tus oldi va yoshlarda mas'uliyat hamda o'zgalarga g'amxo'rlik tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qildi.

"Obod mahalla yili" Davlat dasturi doirasida mahalla institutining yosh oilalar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ro'zg'or xo'jaligini yuritishda kam ta'minlangan yosh oilalarga ssuda ajratish hamda yoshlar sportini rivojlantirish ishlarida ijtimoiy harakatlar bilan hamkorligi kuchaydi. Bolalar va o'smirlar o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida "Futbolimiz kelajagi" va "Mahalla pahlavonlari" kabi musobaqalar tashkil etilib, ularni o'tkazishda davlat qo'mitalari, "Mahalla" jamg'armasi, sport federatsiyalari va jamg'armalar bilan hamkorlik o'rnatildi. Mazkur tadbirlar doirasida amalga oshirilgan 28 turdagi targ'ibot-tahliliy ishlar yoshlarda ijtimoiy va ijodiy faollikni shakllantirishga xizmat

qildi. Ayniqsa, uyushmagan yoshlarni jamoat hayotiga jalb etishga alohida e'tibor qaratildi [6].

2004 yilda "Mahalla" jamg'armasi tashabbusi bilan Ichki ishlar vazirligi hamkorligida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan milisiya tayanch punktlari va fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi hamkorlik ijobiy natija berdi. Diniy ma'rifat hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar faoliyatini tartibga solish, oqsoqollar va nozirlar hamkorligini chuqurlashtirish bo'yicha uchrashuvlar muntazam o'tkazib turildi [11].

2010 yilga kelib O'zbekistondagi 10 mingga yaqin mahalla [14] yoshlar o'rtasida ijodiy uchrashuvlar, "Mahalla – mo'jaz Vatan", "Vatanparvarlik tuyg'usi" kabi mavzularda teleko'rsatuvlar tashkil etdi, giyohvandlikning zarari hamda yoshlarning buzg'unchi oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan suhbatlar o'tkazildi. "XXI asr mahallasi", "Men o'z mahallam uchun nima qilishim mumkin?" mavzularida talabalar o'rtasida telemuloqotlar va ijodiy ishlar tanlovlari uyushtirildi. Ushbu tadbirlarda "Mahalla" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, yoshlar harakati hamda boshqa tashkilotlar faol ishtirok etdi [6].

Mahalla institutining yoshlarni tarbiyalash borasidagi faoliyatini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj 2018 yilga kelib yaqqol namoyon bo'ldi [18]. "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon [9] hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qaror [10] tizimlashuvning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayon o'zini o'zi boshqarish organlari rivojining mantiqiy davomi sifatida baholanadi [8].

2020–2024 yillarda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash, jinoyatchilikning oldini olish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish hamda oila bilan manzilli ishlashning yangicha mexanizmlari shakllandi. Mazkur ishlarda "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti va bir qator nashrlarning faoliyati yagona tizimga birlashtirildi. Bu esa tizimdagi funksional vazifa va vakolatlar ortishi malakali mutaxassislariga bo'lgan talabni oshirdi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi qarorida yoshlar bilan ishlashning yangi boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda muammolarni mahalla darajasida hal qilish vazifalari belgilandi [4]. Mamlakat bo'ylab 9348 ta mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi; yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha "Yoshlar daftari" tizimi orqali 630 ming nafar yosh bilan ishlash yo'lga qo'yildi. 2022 yil birinchi choragida 131 ming 510 nafar ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh ro'yxatga olinib, ularning bir qismi kasb-hunarga o'qitildi, subsidiya va yer maydonlari bilan qo'llab-quvvatlandi [21]. Bu choralar natijasida yoshlar ishsizligi xalqaro ko'rsatkichlarda 13,4 foizgacha pasaydi [20]. Yoshlarni mehnatga, o'z kuchiga tayanishga va omilkorlikka yo'naltirgan bu siyosat ularning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yoshlar bilan ishlashning amaliy shakllari tartib-intizom, mas'uliyat va o'zaro yordam tamoyillariga tayangan holda takomillashtirildi. "Bir nuroniyga – 10 nafar yosh" loyihasi doirasida tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlikka moyil yoshlar faxriy nuroniyalarga birlashtirildi. Mahallalarda ko'ngillilardan iborat "Qalqon" yoshlar guruhlari tashkil etildi [4]. Natijada jinoyat sodir etilmagan mahallalar ulushi 2016 yildagi 9,5 foizdan 2019 yilda 33,7 foizgacha ko'tarildi [17. 14].

Mahallalarni ma'naviyat va ma'rifat o'chog'iga aylantirish maqsadida mahalla binolarida kutubxonalar tashkil etilib, fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Milliy kutubxonasi

resurslaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratildi va ko'plab ijodiy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi [5]. Bu yo'nalish yoshlarda mazmunli bo'sh vaqt va ma'rifiy iste'mol madaniyatini, shuningdek ularning ma'naviy kamolotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2023 yilda mahalla "yetiligi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Uning tarkibiga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiritilib, ular zimmasiga kambag'allikka qarshi kurashish, yoshlar bandligini ta'minlash hamda yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash vazifalari yuklatildi [5]. Yaratilgan tizim "maktab – ota-ona – mahalla" zanjirini yuzdaga keltirdi. Mahalla inson resurslarining asosiy manbai [16] hamda jamiyatda yuqori darajadagi ishonch va muloqot mavjudligi bilan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib qolmoqda [13].

Muhokama. Tadqiqot natijalari mahalla institutining yoshlar bilan ishlash borasidagi salohiyati mustaqillik yillaridan buyon izchil kuchayib borganini ko'rsatadi. Dastlabki bosqichda asosan madaniy-ma'rifiy va xayriya yo'nalishida namoyon bo'lgan bu ishtirok keyingi islohotlar natijasida bandlik, huquqbuzarlikning oldini olish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va manzilli ijtimoiy yordam kabi tizimli mexanizmlar bilan boyidi. Yoshlar yetakchisi lavozimi, "Yoshlar daftari" tizimi hamda mahalla "yetiligi"

faoliyatining joriy etilishi muammolarni aynan mahalla darajasida hal qilish imkonini kengaytirdi.

Jinoyat sodir etilmagan mahallalar ulushining sezilarli oshishi va yoshlar ishsizligining pasayishi kabi ko'rsatkichlar bu yondashuvning amaliy samarasini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mahalla nafaqat boshqaruv bo'g'ini, balki yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik, muruvvat va faol fuqarolik pozitsiyasini tabiiy ravishda shakllantiruvchi tarbiyaviy makon vazifasini ham bajaradi. "Maktab – ota-ona – mahalla" zanjirining shakllanishi, shuningdek jamiyatdagi ishonch va muloqot darajasining yuqoriligi mahallani fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim vositasiga aylantiradi.

Xulosa. Mahalla – ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy institut sifatida yoshlarni jamoat hayotiga jalb etish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishning tabiiy hamda samarali maydonidir. Tarixiy tajriba hamda so'nggi yillardagi islohotlar mahallaning bu boradagi salohiyati izchil oshib borganini ko'rsatadi. Ayni shu jarayonda yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik, muruvvat va faol fuqarolik pozitsiyasi – yosh avlod kamolotining muhim fazilatlarini ham tabiiy ravishda shakllanib boradi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini barqaror oshirish uchun mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yoshlarni tadbirkorlik, ko'ngillilik va jamoat tashabbuslariga keng jalb etish, shuningdek mahalladagi ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 23 apreldagi PF-1990-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-son "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4740335>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda PF-209-son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6705763>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 7 fevraldagi 70-son "Obod mahalla yili" dasturi to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrdagi 915-XII-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz>.
8. Ishqovatov V.T. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlanish tarixi (1991–2020-yy.): tarix fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 23 b.
9. Karimov I.A. Building the Future: Uzbekistan – its Own Model for Transition to Market Economy. – Tashkent: Government Printing Office, 1993.
10. "Mahalla" gazetasi. – 2000 yil 19 yanvar. – № 5–6 (137–138).
11. "Mahalla" gazetasi. – 2004 yil 15 dekabr. – № 51 (433).
12. Masaru S. The Politics of Civil Society, Mahalla and NGOs: Uzbekistan. https://src-h.slav.hokudai.ac.jp/coe21/publish/no10_ses/12_suda.pdf
13. Muminov A. Makhalla as the Center and the Conductor of Socio-Political Development in Uzbekistan // ISJ Theoretical & Applied Science. – 2017. – № 04 (48). – P. 103–107.
14. O'zbekiston makon va zamonlar osha: sotsiomadaniy almanax. – Toshkent: OPTIMAL LIGHT, 2011. – 250 b.
15. Pekkanen R. Japan's Dual Civil Society: Members without Advocates. – Stanford: Stanford University Press, 2006. – P. 6.
16. Putnam R.D. Bowling Alone: America's Declining Social Capital // Journal of Democracy. – 1995. – Vol. 6, № 1. – P. 65–78.
17. Qurbanbaev Q.Q. Yoshlarga oid davlat siyosatida yangi tashabbuslar // Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 12–16.
18. Saidov S. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining ba'zi mezonlari. <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/2946/> (2018).
19. Turmanov S. Rol' mahalli v sotsialnyx vzaimootnosheniyax // Strategik kuch: halqaro ilmiy jurnal. – 2022. – № 1. – B. 18–26.
20. Unemployment, Youth Total (% of total labor force ages 15–24): Modeled ILO Estimate. <https://data.worldbank.org>.
21. Yoshlar muammolarini mahallada hal etish qanday natija bermoqda? <https://uza.uz>.
22. Yunusova M.P. Mahalla institutining genezisi va rivojlanish bosqichlari. <https://uza.uz>.